

## ARAB XALIFALIGI VA UNING MOVAROUNNAHRGA YURISHLARI

*Qodirova Laylo Bekchan qizi*

*Urganch Davlat Universiteti*

*Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti 232-guruh*

*Tarix yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada arab xalifaligi, uning tashkil topishi, boshqaruv tartibi va Movarounnahrda harbiy yurishlari haqida soʻz boradi.

**Kalit soʻzlar:** "Arab xalifaligi", "islom", "muslim", "paygʻambar", "Arabiston yarimoroli", "boʻysunish", "Qur'oni Karim".

**Аннотация:** В статье говорится об Арабском халифате, его создании, порядке управления и военных походах на Моваруннахр.

**Ключевые слова:** «Арабский халифат», «Ислам», «Мусульманин», «пророк», «Аравийский полуостров», «подчинение», «Священный Коран».

**Abstract:** The article talks about the Arab caliphate, its establishment, management procedure and military campaigns to Movarounnahr.

**Key words:** "Arab caliphate", "Islam", "Muslim", "prophet", "Arabian peninsula", "submission", "Holy Qur'an".

### Kirish

VI asr oxiri - VII asr boshlarida Arabiston yarimorolida ijtimoiy- iqtisodiy jarayonlar sodir boʻlib, davlat birlashmasi vujudga keldi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda Muhammad (s.a.v) tomonidan asos solingan islom dini asosiy vazifani bajardi. Islom soʻzining maʼnosi "itoat", "boʻysunish" degan maʼnolarni bildiradi. Muhammad (s.a.v) ning taʼlimotiga ergashganlarni "muslim" (musulmon) deb aytganlar.

Muhammad (s.a.v) vafotidan keyin, 632-yildan davlatni uning xalifalari boshqardi. Bu davlat tarixga Arab xalifaligi nomi bilan kirdi. Xalifa davlatni boshqarishda vazir ul-uzaro yaʼni ulugʻ vazirga tayangan. Harbiy ishlarni amir ul-umaro boshqargan. Xalifa turli ishlardagi masalalarni devon ad-darda yaʼni kengashda koʻrib chiqardi. Devon ad-dar uchta devonga boʻlingan. Ular devon al-mashriq, devon al-xaraj va devon al-magʻribdan iborat boʻlgan. Movarounnahrda tegishli masalalar devon al-mashriqda koʻrib chiqilgan. Xalifa viloyat noiblarini lavozimiga tayinlash va boʻshata olish huquqiga ham ega boʻlgan. Xalifalikning huquqiy masalalari Qur'oni Karim va Paygʻambar koʻsatmalari, nasihatlariga asoslangan holda koʻrib chiqilgan. Xalifa davlat yerlarini shaxslarga iqto tarzida tuhfa qilgan. Biroq yerlarning asosiy egasi xalifa sanalar va u iqtodordlardan ushr soliqini olish huquqiga ega boʻlgan<sup>1</sup>.

### Adabiyotlar tahlili

Arablarning O'rta Osiyoga dastlabki yurishlari Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida 651-yilda Marvni egallash bilan boshlanadi. Arablar Amudar- yodan shimolda joylashgan yerlarga "Movarounnahr" ya'ni "daryoning ortidagi yerlar " deb nom berishgan. Narshaxiy va arab muallifi Yoqut bergan ma'lumotlarga ko'ra, Muhammad payg'ambarimizning shaxsan o'zi Movaro-unnahrni bo'ysundirishni muqaddas deb hisoblagan<sup>2</sup>. 654-yilda Sug'ddagi Maymurg' qal'asiga arablarning birinchi hujumi bo'ladi. Manbalarning ma'lu-mot berishicha Movarounnahrda yurish qilishdagi harbiy-siyosiy tayyorgar- likdan biri, xalifalikning Basra va Kufa shaharlaridan 50 ming arab oilasi ko'-chirib keltirilishi va Xurosonning turli shaharlariga garnizon sifatida joylash- tirilishi bo'ldi<sup>3</sup>.

Xurosonga noib qilib tayinlangan Qutayba ibn Muslim arablarning Mo- varounnahrda harbiy yurishiga boshchilik qiladi. Qutayba harbiy yurishni Balx viloyatini bosib olishdan boshlaydi. Qutayba 707-yilda Poykandni egal- lab, Buxoro tomonga yo'l oladi va 709-yilda Buxoroni bosib oladi. 710-yilda Qutayba Naxshab va Keshni bosib oladi va Samarqandni bosib olish uchun tayyorgarlik ko'radi. Ammo Xorazm shohi Chag'on ukasi Hurzod boshchiligi- dagi xalq qo'zg'olonidan qo'rqib Qutaybadan yordam so'raydi. Hurzod o'ldiriladi va Xorazm 711-yilda arablar tomonidan egallanadi. 712-yila esa Samarqandni bosib oladi. 712-713-yillarda Sug'd, Choch, Farg'ona va Panji- kent hokimlari arablarga qarshi ittifoq tuzib vaqtincha g'alabalarga erishgan bo'lishsa-da, Qutayba bu ittifoqqa rahna soladi va ularni tor-mor etadi. 713-yilda Choch vohasi bosib olinadi. Uning bosh shahri Madinat ash-Shosh va ko'p qal'a, qo'rg'onlar hamda qishloqlarga o't qo'yilib vayron etiladi. 715-yil- ning boshida Farg'ona vodiysini bosib olib, Koshg'argacha kirib boradi. Bo- sib olingan viloyatlarga arablardan amirlar tayinlanadi. 715-yilda Qutayba o'ziga dushman bo'lgan xalifa Sulaymonga qarshi isyon ko'taradi va mag'lu-biyatga uchrab o'ldiriladi. Shu bilan arablarning sharqqa yurishi to'xtaydi.

### Tahlil va natijalar

Arablar Movarounnahrda o'rnatilgan siyosiy hokimiyatni mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlash uchun Islom dinini da'vat etishdi. Aholi orasida islom dinini yoyishga alohida ahamiyat berdilar. Shu sababli Mova- rounnahrda avvaldan mavjud bo'lgan dinlarga qarshi qattiq kurashdilar. Ibo- datxonalar buzib tashlanib orniga jome masjidlari qurildi. Misol uchun, Qu- tayba Buxorodagi zardushtiylik ibodatxonasini masjidga aylantirdi. Aholini islom diniga kiritishga harakat qildi. Shu maqsadda masjidga kelib ibodat qilganlar uchun 2 dirhamdan pul hadya qilishni joriy qildi.

### Xulosa

Arab xalifaligi Movarounnahrni bosib olish jarayonida dehqonchilik vohala- rini, shahar va qishloqlarga o't qo'yib vayron qildilar. Suv inshootlarini buzib tashladilar.

Bosib olingan joylar aholisidan oltin, kumush, qimmatbaho buyumlar tortib olindi. Xalifalik tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi oqibatida mahalliy aholining urf-odati, dini, e'tiqodi, madaniyati poymol etildi. VIII asr o'rtalariga kelib Movarounnahrda boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirildi. Mahalliy aholining ko'pchiligi o'z huquqlarini saqlab qolish uchun Islom dinini qabul qildilar. Shu bilan arablar Movarounnahr siyosiy tizimi va diniy e'tiqodiga o'z ta'sirini o'tkazdilar.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sagdullayev.S.A.O'zbekiston tarixi // "Fan" , Toshkent , 2018 , 511 b.
2. Zokirjon Saidboboyev .Tarixiy geografiya // "Noshir", 2010, 224 b.